



**BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY
METODIK ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Salimova Sarvinoz Farhodovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

Biologiya kafedrası dotsenti

Telefon: +998 (90) 718-11-18

Elektron pochta: sarvinoz8915@gmail.com

Ashurova Mahbuba O‘lmas qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti 4 bosqich talabasi

Telefon: +998(99)4600104

ashurovamahbuba8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada 4+2 pedagogik amaliyot modeli misolida bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy-metodik ishlarini tashkil etish va takomillashtirishning samarali yo‘llari ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot davomida biologiya o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligining nazariy asoslari, 4+2 pedagogik amaliyot modelining mazmuni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, amaliyot jarayonida kasbiy-metodik ishlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ilg‘or tajribalar, zamonaviy metodlar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari aniqlangan. Ilmiy adabiyotlar tahlili, so‘rovnoma, suhbat va ilg‘or tajribalarni o‘rganish natijalariga tayangan holda bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy-metodik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.



Kalit so'zlar: Didaktika didaktik prinsiplar, o'quv material, matn slayd, mashqlar tarifi, test sinovlari, jihozlar, modullitexnologiya, elektron darslik, kompyuterli qo'llanmalar, nashr, uslubiy taminot.

Аннотация: В данной статье на примере модели педагогической практики 4+2 научно обоснованы эффективные пути организации и совершенствования профессионально-методической работы будущих учителей биологии. В ходе исследования проанализированы теоретические основы профессионально-методической подготовки учителей биологии, а также содержание и значение модели педагогической практики 4+2. Кроме того, определены особенности профессионально-методической работы в процессе практики, возможности использования передового опыта, современных методов и инновационных подходов. На основе анализа научной литературы, результатов анкетирования, интервью и изучения передового опыта разработаны практические рекомендации по совершенствованию профессионально-методической деятельности будущих учителей биологии.

Ключевые слова: Дидактика, дидактические принципы, учебный материал, текстовый слайд, описание упражнений, тестовые задания, оборудование, модульная технология, электронный учебник, компьютерные пособия, издание, методическое обеспечение.

Abstract: This article scientifically substantiates effective ways of organizing and improving the professional-methodological activities of future biology teachers based on the example of the 4+2 pedagogical practice model. The study analyzes theoretical foundations of professional and methodological training for biology teachers, as well as the content and significance of the 4+2 pedagogical practice model. Furthermore, the features



of professional-methodological activities during practice, opportunities for using advanced experience, modern methods, and innovative approaches have been identified. Based on the analysis of scholarly literature, surveys, interviews, and the study of best practices, practical recommendations for improving the professional-methodological activities of future biology teachers have been developed.

Keywords: Didactics, didactic principles, teaching material, text slide, description of exercises, test tasks, equipment, modular technology, electronic textbook, computer tutorials, publication, methodological support.

Kirish

Hozirgi zamon jamiyatida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan yangi talablar kundalikda tubdan o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Bu esa ta'lim sohasida sifatli mutaxassislarni tayyorlashga e'tiborni yanada kuchaytirish zarurati tug'dirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Ta'lim to'g'risida" gi Farmoni va "Ta'lim sohasini rivojlantirishning davlat dasturi" bilan birga, pedagog kadrlar tayyorlash sohasida yangicha yondashuvlarni amalga oshirish kerakligini ta'kidlab keladi:

“O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish — bu keyingi avlodni yetuk mutaxassislarga aylandirishning asosiy kaliti.”

Bu fikr biologiya fanidan o'qituvchi tayyorlash jarayoniga ham to'g'ridan-to'g'ri tegishli. Chunki biologiya tabiat bilimlari sohasining asosi hisoblanadi va u inson sog'liqqa, atrof-muhitga, ekologik muhitga hamda ilmiy dunyoqarash shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli ham biologiya o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi — bu faqat fan bilimlarini o'tish emas, balki insonparvarlik, ekologik madad, ijodiy fikrlash hamda innovatsion usullarni qo'llash qobiliyatini shakllantirishdir.

Bugungi kunda ta'lim sohasida "4+2" modeli keng qo'llana boshlandi. Ushbu model bo'yicha bakalavr darajasini olgan talabalar magistratura bosqichida ikki semestr



mobaynida mutahassislikka mos ravishda amaliy pedagogik tayyorgarlikdan o'tishlari kerak. Bu jarayon orqali talaba faqat nazariy bilim emas, balki haqiqiy pedagogik faoliyatni o'rganadi. Shunday qilib, biologiya o'qituvchilarini tayyorlashning dolzarbligi shundaki, ular kelajak avlodni ilmiy-asoslangan holda tarbiyalashda muhim rolni oynaydi.

Bugungi kunda ta'lim sohasidagi zamonaviy talablarga javob berish maqsadida O'zbekistonda oliy pedagogik ta'limni yangilash yo'nalishida katta ishlar olib borilmoqda. Shu tarafdagi eng dolzarb tizimlardan biri "4+2" pedagogik amaliyot modeli dir. Bu model asosan bakalavr darajasini olgan talabalarni magistratura bosqichida mutaxassislarning amaliy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bunday tizim orqali talabalar faqatgina nazariy bilim emas, balki o'z kasblariga xos bo'lgan kasbiy-metodik ko'nikmalarini ham shakllantiradi .

"4+2" modeli — bu 4 yil davomida bakalavr darajasi asosida nazariy fanlar, jumladan biologiya fani chuqur o'rganiladi, keyin esa 2 semestr (ya'ni 1 yil) davomida esa pedagogik amaliyot o'tkaziladi. Bu amaliyotda talabalar maktabga joylashtirilib, o'qituvchi vazifasini bajaradi, ya'ni dars berish, sinov topshiriqlari tuzish, testlar o'tkazish, o'quvchilarni baholash, laboratoriya ishlari o'tkazish kabi kasbiy-metodik ishlarni amalga oshiradi .

Bu jarayon talabaning kelajakdagi o'qituvchilik faoliyatiga tayyorlanishida muhim rol oynaydi. Chunki, "4+2" amaliyoti orqali talaba faqatgina dars berishni emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etish , o'quvchilarni turli holatlarda boshqarish, dars materialini samarali yetkazish kabi ko'nikmalarni egallay boshlaydi.

Biologiya o'qituvchisi sifatida ishlaydigan har bir mutaxassis uchun kasbiy-metodik ishlarni tashkil etish — bu faoliyatning eng muhim komponentlaridan biridir. Ular orqali o'qituvchi o'z bilimi va tajribasini o'quvchilarga yetkazishda eng samarali usullardan foylanadi. Mazkur ishlarning tashkil etilishi quyidagilarga bog'liq:

- Dars rejasini loyihalashtira olish;
- Didaktik vositalardan foydalana olish;



- Laboratoriya ishlari, eksperimental mashg'ulotlarni o'tkazish;
- Testlar, sinov topshiriqlari tuzish hamda ularni baholash;
- Turli interfaol usullar, masalan, "Aqliy hujum", "Jigarrang qog'oz", "Venn diagrammasi", "Blits-so'rov" kabi metodlardan foydalanish.

Shuningdek, "4+2" amaliyot davomida talabalarga tahlil qilish qobiliyati ham o'rgatiladi. Ya'ni, ular o'tkazilgan darslarni tahlil qilish, o'quvchilar bilimini baholash, nima tushunarli, nima tushunarsiz ekanligini aniqlash orqali o'z ishlari ustida islohotlar o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bu jarayon o'qituvchining refleksiv tafakkuri, ya'ni o'z faoliyatini muntazam tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Xulosa:

Ushbu maqolada biologiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni chuqur nazariy va amaliy tekshiruvdan o'tkazildi. "4+2" pedagogik amaliyot modelining ahamiyati, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy hamda metodik tayyorgarligiga ta'siri, zamonaviy talablarga javob beruvchi kompetensiyalar, shuningdek, metodik ishlarni tashkil etish va takomillashtirish yo'llari batafsil o'rganildi.

Tadqiqot natijasida quyidagi hulosaga kelildi:

- "4+2" modeli orqali o'qituvchilik faoliyatiga yetarli darajada tayyorlanish imkoniyati yaratiladi;
- Metodik ishlar o'qituvchining kasbiy rivojlanishida muhim o'rinni egallaydi;
- Bo'lajak o'qituvchilarda dars jarayonini innovatsion usullar bilan tashkil qila olish qobiliyati shakllantirilishi kerak;
- O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida ilmiy konferensiya, seminar, master-klaslarga jalb etish zarurligi aniqlandi.

Shuningdek, amaliyotda uchraydigan muammolar: yetarli ustoz o'qituvchilarning etishmasligi, amaliyot bazasining cheklanganligi, metodik vositalarning kamligi aniqlandi.



Bu muammolarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalarni amalga oshirish orqali biologiya o'qituvchilari tayyorgarlik sifatini yanada yaxshilash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. *Kadrlar tayyorlashning yangi tizimi — jamiyat farovonligi poydevori* . — T.: O'qituvchi, 2017. — 384 b.
2. Mirziyoev Sh.M. *Birinchi navbatda — inson manfaatlari* . — T.: Adabiyot nashriyoti, 2019. — 456 b.
3. Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti. *Pedagogik amaliyot tashkiliy metodi // Ilmiy-metodik qo'llanma*. – Chirchiq, 2021.
4. Qoraqalpoq Davlat Universiteti. *Biologiya o'qitish metodikasi* . — Nukus, 2020. — 212 b.
5. Tojiyeva M., Ismoilova D. *Biologiya o'qitish metodikasi* . — T.: Sharq, 2019. — 304 b.
6. Norboyev B. *O'qituvchilik faoliyatini baholash mexanizmlari* . — T.: Fan va turmush, 2020. — 188 b.
7. Usmonova M. *Zamonaviy darslarda interfaol metodlardan foydalanish* . — T.: O'qituvchi, 2021. — 144 b.
8. Xaydarova G. *Innovatsion o'qitish usullari va ularning samaradorligi* . — T.: Fan va turmush, 2018. — 160 b.